



Kavsar Turdiyeva 1958-yil 6-avgustda Toshkent shahrida ziyoli oilada tugʻilgan. Shoiraning “Mitti qoʻgʻirchoqboz”, “Quvnoq alifbo olamiga sayohat”, “Sogʻinchlar sochilgan bekatda”, “Dunyoni saqlang, bolalar”, “Oʻynayapman, oʻylayapman”, “Qush boʻlib uchgan ona”, “Raqamlar boʻylab sayohat” kabi koʻplab sheʼriy toʻplamlari nashr etilgan.



## Mikrob, virus va Salomat qiz haqida ertak

*Kavsar Turdiyeva*

Bor ekan-u, yoʻq ekan,  
Och ekan-u, toʻq ekan,  
Ota-ona yolgʻizi  
Bor ekan bitta qizi.  
Ismi ekan Salomat,  
Chiroyli va xushqomat.  
Xoʻb orasta yurarkan,  
Jismoniy mashq qilarkan.  
Kerak boʻlganda har dam  
Berarkan zarur yordam.  
Bir kun koʻribdi u tush:  
Kichik odamlar xomush  
Yoniga kelgan emish,

Shu soʻzni degan emish:  
“Qoʻrqib ketmagin faqat,  
Sen tomonga, Salomat,  
Bizni keltirdi qaygʻu,  
Bir oy bizni ezdi u.  
Bir dushman nomi – Mikrob,  
Yonida Virus-xarob.  
Yurtimiz bosib oldi,  
Odamlar holdan toydi.  
Munajjimlar yulduzga  
Qarab dedilar bizga:  
“Xaloskorimiz faqat,  
Bir qiz – ismi Salomat.

Yuguringlar, yelinglar,  
Uni olib kelinglar.  
Kimgaki yordam kerak,  
U doim berar ko'mak!"  
Va biz otlandik yo'lga,  
Maqsadni tugib dilga.  
Rosa yugurdik, chopdik,  
Nihoyat, seni topdik.  
Voqeani bilgach qiz,  
Boshin chayqar: "Eh, esiz!"  
So'ng ancha o'ylab qolar,  
Qo'lga to'rva olar.  
Unga solar sarimsoq,  
Piyoz, qalampir, munchoq,  
Yalpiz va yerqalampir,  
Na'matak va zanjabil,  
So'ng yasab ancha niqob,  
"Yuringlar!" debdi shu tob.  
Shivirlab, yumgancha ko'z,  
Aytilar sehrli so'z:  
"Shumati, bumati, davara,  
Qiynalmay, bo'lmayin  
ovvora,  
Samoni bir zumda  
quchaylik,  
"Yash" sayyorasiga  
uchaylik".

Shu payt ularni bo'ron  
Elti o'sha yurt tomon.  
Hamma yoqda oh-u voy,  
Bemorlarga yetmas joy.  
Yo'tal, aksirish, hiqichoq,  
Og'riqlardan oh-u voh.  
Mikrob virus yonida,  
Burnidir osmonida,  
Yurishibdi gerdayib,  
Kasalliklarni yoyib.  
Biri qirol, biri shoh  
Juda ham qalin o'rtoq.  
Yonlarida vazir Gripp,  
Oyna-eshikni yopib  
Tumov hamda shamollash,  
Deguningcha hash-u pash,  
Yetib kelar yoningga,  
Og'riq berar joningga.  
Salomat jimib qoldi,  
Atrofga nazar soldi.  
Nima qilsa bo'ladi?  
Qizcha shuni o'yladi.






1. She'rdan Salomat qiz haqida nima deyilgan?
2. She'r qahramonlarining farqi nimada?
3. Mitti odamlar Salomattan qanday yordam so'rashdi?
4. Salomat qanday yo'l tutdi?
5. Nima sababdan odamlar holdan toydi?
6. Siz atrofingizdagilarga qanday yordam berasiz?



She'r mazmuniga mos kelmaydigan gapni aniqlang.

- Salomat xushqomat va aqlli qiz edi.
- Eshikni ochsam, yelvizak kirdi.
- Insonlarga ko'mak kerak.
- U to'rvaxaltasini ko'tarib keldi.
- Atrofdan aks-sado eshitildi.
- Hash-pash deguncha o'sha joyga yetib bordik.





Ertak matnidan ma'nodosh so'zlarni aniqlang.  
Salomat qizga ta'rif berilgan misralarni o'qing.  
"Yash" sayyorasidagi tasvirlangan holatni topib  
o'qing.  
She'riy ertakni o'z so'zlaringiz bilan gapirib  
bering.  
Ertak mazmuni yuzasidan savollar tuzing.  
Savollaringizni partadoshingizga bering.



Ertakni ifodali o'qing.

